



The relevance of organizing independent study in pedagogical disciplines: theoretical foundations, contemporary trends, and practical approaches

Umida AZIZOVA¹

Namangan State University

ARTICLE INFO

Article history:

Received August 2025

Received in revised form

15 September 2025

Accepted 25 September 2025

Available online

15 October 2025

Keywords:

independent learning,
self-directed learning,
constructivism,
ICT,
gamification,
assessment indicators.

ABSTRACT

In contemporary education, independent learning has become a central didactic approach that cultivates learners as self-governing, critical, and creative thinkers. This theoretical – analytical study explores the conceptual substance of independent learning, the factors driving its relevance (the speed of information flows, the rapid obsolescence of knowledge, and shifting demands for skills), and the issues of implementation within the context of trends such as constructivism, digitalization, gamification, inclusion, and lifelong learning. In the setting of Uzbekistan's higher education – characterized by the credit – modular system and distance-learning formats – the study proposes psychological – pedagogical conditions, the instructor's mentoring role, ICT integration, and an assessment-indicator framework to ensure effective adoption. The findings highlight the decisive importance of self-assessment and self-monitoring mechanisms in independent learning, alongside a supportive motivational climate and adequate resource provision. The study concludes by identifying key challenges (learner readiness, resources, and methodology) and recommending multi-stage strategies to address them.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss9/S-pp92-99>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

¹ PhD Student, Namangan State University. E-mail: umida.azizaova.89@inbox.ru

Pedagogika yoʻnalishlarida mustaqil taʼlimni tashkil etishning dolzarbligi: nazariy asoslar, zamonaviy tendensiyalar va amaliy yoʻnalishlar

ANNOTATSIYA

Kalit soʻzlar:

mustaqil taʼlim,
self-directed learning,
konstruktivizm,
AKT,
gamifikatsiya,
baholash indikatorlari.

Zamonaviy taʼlim sharoitida mustaqil taʼlim oʻquvchining oʻz-oʻzini boshqaruvchi, tanqidiy va ijodiy fikrlovchi subyekt sifatida shakllanishini taʼminlaydigan markaziy didaktik yondashuvga aylanmoqda. Ushbu nazariy-tahliliy tadqiqotda mustaqil taʼlimning konseptual mazmuni, uni dolzarb etuvchi omillar (axborot oqimining tezligi, bilimlarning tez eskirishi, koʻnikmalarga talabning oʻzgaruvchanligi) hamda konstruktivizm, raqamlashtirish, gamifikatsiya, inklyuzivlik va lifelong learning kabi tendensiyalar kontekstida tashkil etish masalalari koʻrib chiqiladi. Oʻzbekiston oliy taʼlimida kredit-modul tizimi va masofaviy taʼlim shakllari sharoitida mustaqil taʼlimni samarali yoʻlga qoʻyish uchun psixologik-pedagogik shart-sharoitlar, oʻqituvchining mentorlik roli, AKT integratsiyasi va baholash indikatorlari tizimi taklif etiladi. Natijalar mustaqil oʻrganishda oʻzini baholash va oʻz-oʻzini nazorat qilish mexanizmlarining, shuningdek motivatsion muhit va resurs bazasining hal qiluvchi ahamiyatga egaligini koʻrsatadi. Tadqiqot yakunida muammolar (tayyorgarlik, resurslar, metodika) va ularni bartaraf etish boʻyicha koʻp bosqichli strategiyalar tavsiya qilinadi.

Актуальность организации самостоятельного обучения в педагогических направлениях: теоретические основы, современные тенденции и практические аспекты

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

самостоятельное обучение,
self-directed learning,
конструктивизм,
ИКТ,
геймификация,
индикаторы оценки.

В современных образовательных условиях самостоятельное обучение становится центральным дидактическим подходом, обеспечивающим формирование учащегося как саморегулирующегося, критически и творчески мыслящего субъекта. В данном теоретико-аналитическом исследовании рассматривается концептуальное содержание самостоятельного обучения, факторы, актуализирующие его (скорость информационного потока, быстрое устаревание знаний, изменчивость требований к навыкам), а также вопросы организации в контексте таких тенденций, как конструктивизм, цифровизация, геймификация, инклюзивность и непрерывное обучение. В условиях кредитно-модульной системы и дистанционных форм обучения в высшем образовании Узбекистана предлагаются психолого-педагогические условия для эффективной организации самостоятельного обучения, менторская роль преподавателя, интеграция ИКТ и

система оценочных индикаторов. Результаты показывают, что в самостоятельном обучении решающее значение имеют механизмы самооценки и самоконтроля, а также мотивационная среда и ресурсная база. В заключении исследования обозначаются проблемы (подготовка, ресурсы, методика) и предлагаются многоэтапные стратегии их устранения.

KIRISH

Mustaqil ta'lim zamonaviy didaktikada o'quvchi subyektligini kuchaytiruvchi asosiy model sifatida e'tirof etilmoqda. Ushbu yondashuv talabani bilim olishdagi faolligini, qaror qabul qilish, ilmiy izlanish va amaliy tatbiq ko'nikmalarini rivojlantiradi. Axborot oqimining keskin ortishi, bilimlarning tez eskirishi va kasbiy ko'nikmalarga bo'lgan talabning o'zgaruvchanligi shaxsni uzluksiz o'qishga majbur qilmoqda. O'zbekistonda olib borilayotgan ta'lim islohotlari – kredit-modul tizimi, individual ta'lim yo'nalishlari, masofaviy formatlar – ushbu modelni institutsional darajada qo'llab-quvvatlamogda.

MATERIAL VA TADQIQOT USULLARI

Bu ish **nazariy-tahliliy** xarakterga ega.

• **Manbalar va birliklar:** mustaqil ta'lim, AKT, konstruktivizm, gamifikatsiya, inklyuziv ta'lim, lifelong learning bo'yicha ilmiy adabiyotlar hamda normativ-metodik materiallar.

• **Analitik yondashuvlar:** konseptual tahlil, tematik kodlash, taqqoslama va sintetik umumlashtirish.

• **Tizimlashtirish mezonlari:** (I) konseptual asoslar; (II) tashkil etish shart-sharoitlari; (III) o'qituvchi roli; (IV) baholash indikatorlari; (V) muammolar va yechimlar.

• **Cheklovlar:** empirik (eksperimental) ma'lumotlar keltirilmagan; xulosalar nazariy manbalar sinteziga tayangan.

NATIJALAR VA ULARNING MUXOKAMASI

Zamonaviy ta'lim jarayonida mustaqil ta'lim tushunchasi muhim didaktik prinsiplardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Bu tushuncha talabani bilim olishdagi faolligini oshirish, mustaqil qaror qabul qilish, ilmiy izlanish olib borish va bilimlarni amaliyotga tatbiq qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Pedagogik yondashuvda bu model talabani shaxsiy intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishning samarali vositasi sifatida qaraladi.

Mustaqil ta'lim atamasi ko'pincha 'autonomous learning', 'self-regulated learning' yoki 'self-directed learning' terminlari bilan bir qatorda ishlatiladi. Ular barcha holatda o'quvchining o'z-o'zini boshqarishiga asoslangan o'quv faoliyatini anglatadi. Bu uslubda o'qituvchi yo'naltiruvchi va maslahat beruvchi sifatida ishtirok etadi, barcha mas'uliyat esa o'quvchining o'z zimmasiga tushadi.

Zamonaviy ta'limda bu modelni joriy etish zarurati bir necha omillar bilan bog'liq. Ulardan eng muhimlari sifatida axborot oqimining tezligi, bilimlarning tez eskirishi, kasbiy ko'nikmalarga bo'lgan talabning o'zgaruvchanligi kabi omillarni keltirish mumkin. Bu esa har bir shaxsni o'z ustida ishlashga, hayot davomida o'rganishga majbur qiladi.

Pedagogika sohasida olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim talabani tanqidiy fikrlashi, analitik yondashuvi va ijodiy salohiyatini kuchaytiradi. Ayniqsa, o'quvchi o'zining o'quv maqsadlarini aniqlash, rejalashtirish, monitoring qilish va baholash bosqichlarida faol ishtirok etsa, bilim samaradorligi yuqori bo'ladi.

O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlar ham aynan ushbu yondashuvni qo'llab-quvvatlamocda. Oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimining joriy etilishi, individual ta'lim yo'nalishlari, masofaviy ta'lim shakllarining kengaytirilishi bunga misol bo'la oladi. Bularning barchasi talabanning o'quv jarayonidagi erkinligini kengaytirish, faolligini oshirish va mas'uliyatini mustahkamlashga qaratilgan.

Ta'lim jarayonida mustaqil o'rganish ehtiyoji zamonaviy ta'lim konsepsiyasining asosiy talablaridan biri hisoblanadi. Bu ehtiyoj talabanning bilimga bo'lgan ichki ehtirosi, o'z ustida ishlashga intilishi va shaxsiy o'sishga bo'lgan talabidan kelib chiqadi. An'anaviy ta'lim modelidan farqli o'laroq, mustaqil o'rganish o'quvchining faolligini, mas'uliyatini oshiradi hamda bilimni chuqurroq va barqarorroq egallashga olib keladi.

Zamonaviy jamiyatda har bir kasb egalari doimiy o'zgarayotgan sharoitlarga moslasha olishi, yangi texnologiyalarni o'zlashtirishi va uzluksiz o'qib turishi zarur. Bu esa shaxsiy ta'lim strategiyalarini ishlab chiqishni, mustaqil izlanishni talab qiladi. Aynan shu nuqtai nazardan mustaqil o'rganish ehtiyoji insoniy taraqqiyotning ajralmas komponentiga aylanmoqda.

Shuningdek, bugungi talabanning o'rganish uslubi ham o'zgargan. Ular ko'proq interaktiv, multimedaviy va mustaqil izlanishga asoslangan o'quv resurslariga tayanmoqda. Onlayn platformalar, raqamli kutubxonalar, elektron darsliklar – bularning barchasi mustaqil ta'lim imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

Tadqiqotlar ko'rsatadiki, talabalarda o'z-o'zini baholash, bilimni tanlash va uni hayotga tadbiiq etish ko'nikmalari mustaqil o'rganish orqali kuchayadi. Bu jarayon, ayniqsa, shaxsiy motivatsiyaning mavjudligida samarali bo'ladi. Demak, mustaqil o'rganish ehtiyoji – bu pedagogik tizimda sun'iy yaratilgan holat emas, balki ichki ehtiyoj sifatida qoralishi kerak.

Hozirgi davrda ta'lim sohasida yuzaga kelayotgan zamonaviy pedagogik tendensiyalar mustaqil ta'limni tashkil etish va uni sifatli amalga oshirishda muhim o'rin tutmoqda. Ta'limga zamonaviy yondashuvlar nafaqat o'quv jarayonining mazmunini, balki shakli va metodikasini ham tubdan o'zgartirmoqda. Bu jarayonda o'quvchining faol ishtiroki, tashabbus ko'rsatishi va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalari asosiy o'ringa chiqmoqda.

Konstrukstivizm nazariyasiga asoslangan ta'lim yondashuvi hozirda keng qo'llanilmoqda. Ushbu nazariyada o'quvchi bilimni tayyor holatda emas, balki o'z tajribasi, izlanishi va faollii orqali egallaydi. Bu yondashuvda mustaqil o'rganish markazii o'rinni egallaydi, chunki bilim o'quvchining faolati davomida shakllanadi.

Konstruktivistik ta'lim modeli asosida o'quvchilarga tanqidiy fikrlash, muammoli vaziyatlarda yechim topish, izlanish va eksperimentlar asosida o'rganish imkoniyati yaratiladi. Bu esa o'z-o'zini boshqarish, baholash va nazorat qilish qobiliyatini kuchaytiradi. Talaba bilimni o'zlashtirishda passiv emas, balki faol ishtirokchiga aylanadi.

Yana bir muhim tendensiya bu – ta'limni raqamlashtirish. Onlayn ta'lim platformalari, sun'iy intellektdan foydalanish, adaptiv o'quv modullari orqali mustaqil ta'lim olish imkoniyatlari ortmoqda. Masalan, Moodle, Coursera, Khan Academy kabi tizimlar o'quvchining o'z bilim darajasiga moslashtirilgan darsliklar bilan ishlashga imkon yaratadi.

Ta'limda gamifikatsiya (o'yinlashtirish) va loyiha asosida o'qitish ham mustaqil ta'limni rag'batlantiruvchi zamonaviy usullardandir. Bu metodlar o'quvchida o'rganishga nisbatan ijobii munosabat, motivatsiya va ishtiyoq uyg'otadi. Mustaqil o'rganish jarayonida gamifikatsiya elementlari orqali ilgari surilgan maqsadga erishish yanada samarali bo'ladi.

Ta'limdagi inklyuziv yondashuv ham mustaqil o'rganishga imkoniyat yaratadi. Har bir o'quvchining ehtiyojiga mos individual yondashuv, o'zlashtirish darajasi va qiziqishlariga ko'ra ta'lim berish orqali ular o'zlarini qulay his qilishadi va faol ishtirok etishga intiladilar.

Shu bilan birga, zamonaviy ta'limda "Hayot davomida o'qish" (lifelong learning) konsepsiyasi asosiy qadriyatlardan biriga aylangan. Bu yondashuv mustaqil ta'limga asoslanadi va ta'lim jarayonini nafaqat muayyan yoshgacha, balki butun hayot davomida amalga oshirish zarurligini anglatadi. Bunda har bir inson o'z bilimini doimiy rivojlantirib borishi kerakligi e'tirof etiladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT) zamonaviy ta'limning ajralmas qismiga aylangan bo'lib, ayniqsa, mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda muhim vosita hisoblanadi. Bugungi kunda talabalar bilim olishda AKTdan keng foydalanmoqda, bu esa ularning mustaqil fikrlashi, tahliliy salohiyati va ilmiy izlanish ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam bermoqda.

Elektron darsliklar, onlayn platformalar, raqamli kutubxonalar, mobil ilovalar va interaktiv dasturlar mustaqil o'rganish jarayonida asosiy manbaga aylangan. Masalan, Moodle, Google Classroom, Ziyonet kabi platformalar orqali talaba dars materiallariga mustaqil kirib, o'z bilimini o'zi nazorat qilishi mumkin.

AKT vositalari mustaqil ta'limda differensial yondashuv imkoniyatini yaratadi. Ya'ni, har bir o'quvchi o'z o'zlashtirish darajasi, qiziqish va ehtiyojlariga qarab materiallarni tanlaydi va mos tezlikda o'rganadi. Bu jarayon o'quvchini passiv iste'molchidan faol bilim izlovchiga aylantiradi.

Onlayn ta'lim vositalari nafaqat o'quv materiallarini yetkazib beradi, balki muhokama forumlari, test tizimlari, videodarslar orqali o'zaro aloqa va baholash imkoniyatini ham yaratadi. Ayniqsa, masofaviy va aralash o'qitish sharoitida bu vositalarning roli yanada kuchayadi. Talabaning raqamli savodxonligini oshirish ham mustaqil ta'limning sifat ko'rsatkichlaridan biridir. Bugungi kunda har bir o'quvchi ma'lumotlarni izlash, tahlil qilish, saralash va ularni mustaqil o'zlashtirish bo'yicha muhim raqamli ko'nikmalarga ega bo'lishi kerak.

AKT vositalaridan samarali foydalanish uchun o'qituvchilar ham doimiy ravishda malakasini oshirib borishi kerak. Chunki texnologiyalar tez yangilanmoqda va yangi vositalar o'quv jarayoniga integratsiya qilinmoqda. Shuning uchun ham ta'lim tizimida o'qituvchilar uchun maxsus AKT bo'yicha malaka oshirish dasturlari ishlab chiqilmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mustaqil ta'limni qo'llab-quvvatlovchi, unga zamin yaratib beruvchi va o'quvchining ta'lim olishini individuallashtiruvchi muhim vosita bo'lib xizmat qilmoqda. Raqamli asrda mustaqil ta'limni samarali tashkil etish AKTdan samarali foydalanishsiz imkonsizdir.

Mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda muhim omillardan biri – bu o'quvchilarning ichki motivatsiyasini qo'llab-quvvatlovchi psixologik-pedagogik shart-sharoitlarni yaratishdir. Shunday sharoitda o'quvchi o'zini erkin his qiladi, o'z fikrini bemalol ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi va bilim olishga ichki ehtiyoj sezadi.

Motivatsiya – bu o'quvchining o'rganishga bo'lgan ichki qiziqishini kuchaytiruvchi psixologik omildir. O'qituvchi o'z faoliyatida individual yondashuv, differensiallashtirish, o'z-o'zini baholash imkoniyatlarini taqdim qilgan taqdirda, talaba o'zini qadrlangan his qiladi va mustaqil izlanishga ko'proq intiladi.

Psixologik jihatdan sog'lom muhit – bu talaba va o'qituvchi o'rtasida o'zaro ishonchga asoslangan, qo'llab-quvvatlovchi va rag'batlantiruvchi muhitdir. O'ziga nisbatan ishonch hosil qilgan o'quvchi bilimni mustaqil o'zlashtirishga ko'proq intiladi. O'qituvchi esa mentor sifatida ishonch bildirishi, rag'batlantiruvchi baholash tizimini qo'llashi muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik yondashuvda mustaqil ta'limga asoslangan mashg'ulotlar quyidagi tamoyillar asosida qurilishi lozim: faoliyatga yo'naltirilganlik, konstruktivlik, reflektivlik va kommunikativlik. Bu esa o'quvchining o'z o'quv faoliyatini anglash, baholash va o'zgarishga tayyor bo'lish salohiyatini shakllantiradi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida emotsional iqlim ham muhim rol o'ynaydi. Ijobiy emotsiyalar, qo'llab-quvvatlovchi munosabatlar, tan olinish va muvaffaqiyat hissi mustaqil ta'limni kuchli motivatsion omilga aylantiradi. Bunday iqlimni yaratishda o'qituvchining empatiyasi, didaktik mahorati, ijtimoiy kompetensiyasi muhim hisoblanadi.

Tajribalar shuni ko'rsatadiki, mustaqil ta'lim faqatgina resurslar bilan emas, balki o'quvchini o'qishga undovchi sharoitlar bilan ham chambarchas bog'liq. Shuning uchun ham, oliy ta'lim muassasalari va umumta'lim maktablarida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv asosida tashkillashtirilgan ta'lim muhiti eng samarali vositaga aylanadi. Mustaqil ta'limni kuchaytiruvchi psixologik va pedagogik shart-sharoitlar – bu faqat tashqi vositalar emas, balki o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi muloqot, o'zaro ishonch, rag'bat, moslashtirilgan metodika va motivatsion strategiyalarning majmuidir.

Mustaqil ta'limni muvaffaqiyatli amalga oshirishda o'quvchining o'z o'quv faoliyatini baholash va nazorat qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Bu mexanizmlar o'quvchining bilim olish jarayoniga mas'uliyatli yondashuvini shakllantiradi hamda o'zini doimiy rivojlantirishga yo'naltiradi.

O'zini baholash talabaning o'z bilim darajasi, o'zlashtirish sifati va rivojlanish holatini mustaqil tahlil qilish imkonini beradi. Bu orqali u o'z kuchli va zaif tomonlarini aniqlaydi, ta'limiy strategiyasini qayta ko'rib chiqadi. Bu jarayon tanqidiy fikrlash va refleksiyaning rivojlantiradi.

O'z-o'zini nazorat qilish esa o'quvchi tomonidan belgilangan o'quv maqsadlariga erishish yo'lida faoliyat yuritish, natijalarni doimiy kuzatib borish va kerakli holatlarda o'zgarishlar kiritishni o'z ichiga oladi. Bunday mexanizmlar orqali o'quvchi o'z ta'limini ongli ravishda boshqaradi.

Zamonaviy ta'limda bu jarayonlarni qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab metodik vositalar mavjud: portfoliolar yuritish, o'zini baholash jadvallari, reflektiv kundaliklar, testlar, o'zaro baholash mashg'ulotlari va boshqa interaktiv metodlar. Bu usullar o'quvchining o'z o'rganish faoliyatini tahlil qilishda yordam beradi.

O'zini baholash va nazorat qilishni samarali tashkil etish uchun o'quvchilar ushbu ko'nikmalarga oldindan tayyorlanishi lozim. O'qituvchi bu jarayonda yo'naltiruvchi va mentorlardan biri sifatida ishtirok etadi, ammo asosiy rol o'quvchining o'zida bo'ladi. Shu sababli, ta'limda ushbu ko'nikmalarni shakllantirishga alohida e'tibor qaratish zarur.

Tajribalar ko'rsatadiki, o'zini baholash va o'z-o'zini nazorat qilish mexanizmlariga ega bo'lgan talabalarning mustaqil ta'limga bo'lgan tayyorligi yuqori bo'ladi. Ular ta'limiy muammolarga ijodiy yondashadi, resurslarni ongli tanlaydi va o'z ustida muntazam ishlaydi. Bu esa ularni muvaffaqiyatli o'rganishga, kasbiy shakllanishga va hayotiy kompetensiyalarni rivojlantirishga olib keladi.

Mustaqil ta'limda o'qituvchining roli klassik o'quv modelidagi ma'lumot yetkazuvchidan ko'ra murakkabroq va mas'uliyatliroq tus oladi. Endilikda u – yo'naltiruvchi, maslahat beruvchi, motivatsiya manbai va pedagogik jarayonning tashkilotchisi sifatida namoyon bo'ladi.

O'qituvchi mustaqil ta'lim jarayonida talabaning o'zini anglashiga, mustaqil qaror qabul qilishiga va tanqidiy fikrlashiga yordam beruvchi pedagogik muhitni yaratadi. U ta'lim resurslarini taqdim etadi, tanlov imkoniyatlarini ko'rsatadi va o'quv jarayonining har bir bosqichida fikr almashish va muhokamani rag'batlantiradi.

Zamonaviy o'qituvchi didaktik jarayonni loyihalovchi, individual o'quv yo'nalishlarini ishlab chiquvchi va o'quvchini reflektiv faoliyatga jalb qiluvchi shaxs sifatida ishtirok etadi. U metodik yondashuvlar, elektron vositalar, interaktiv metodlar va baholash usullari orqali o'quvchini mustaqil bilim olishga yo'naltiradi.

O'qituvchining asosiy funksiyalaridan biri – o'quvchini mustaqil ta'limga tayyorlash, ya'ni unga rejalashtirish, izlash, tanlash, saralash va baholash ko'nikmalarini shakllantirishdir. Bunda o'qituvchi avtoritar emas, balki sherik va mentor rolida bo'lishi kerak. U o'quvchining ichki motivatsiyasini uyg'otishga harakat qiladi.

Pedagogik jarayonda o'qituvchining muloqot uslubi ham muhimdir. U ochiq, empatik va ishonchli bo'lishi lozim. O'quvchi o'z fikrini erkin bildiradi, xatolaridan qo'rqmaydigan muqobil muhitda rivojlanadi. O'qituvchi ana shunday sharoitni ta'minlovchi shaxsdir. Mustaqil ta'limda o'qituvchi ta'lim beruvchi emas, balki ta'lim olishga yo'naltiruvchi rolini bajaradi. U o'zining tajribasi, bilim doirasi, insoniy fazilatlari orqali o'quvchini mustaqil izlanishga, doimiy o'sishga va hayotiy kompetensiyalarni shakllantirishga undaydi.

Mustaqil ta'lim samaradorligini aniqlash uchun aniq va tizimli baholash mezonlari va indikatorlarini ishlab chiqish zarur. Ushbu indikatorlar yordamida o'quvchining mustaqil o'rganish jarayonidagi faolligi, bilimni egallash darajasi, refleksiya va tahlil qilish ko'nikmalari baholanadi.

Birinchi navbatda, baholash mezonlari o'quvchining mustaqil o'quv rejasini tuzish qobiliyati, maqsadlarni aniqlash va unga erishish uchun rejalashtirish, vaqtdan foydalanish va o'zini tahlil qilish kabi faoliyatlarni o'z ichiga oladi. Bu mezonlar individual ta'lim trayektoriyasini aks ettiradi.

Ikkinchi yo'nalish – bilim va ko'nikmalarni mustaqil ravishda o'zlashtirish darajasidir. Bunda o'quvchi tomonidan o'rganilgan mavzularning chuqurligi, tushunchalarni mustaqil ifodalash va amaliyotga tadbqiq qilish holatlari e'tiborga olinadi.

Uchinchi mezon – tanqidiy fikrlash va refleksiya. Talabaning o'z bilimni baholay olishi, o'rgangan material asosida mustaqil fikr yuritishi, muammolarga yondashuvi ham baholashning muhim tarkibiy qismidir. Refleksiya vositasida talaba o'z o'quv faoliyatini anglaydi va takomillashtiradi.

To'rtinchi indikator – o'quvchining mustaqil ishlari sifati. Bunga esse, referat, loyiha ishi, amaliy topshiriqlar, eksperiment natijalari kiradi. Bu ishlar orqali o'quvchining izlanish ko'nikmalari, axborot bilan ishlash malakasi va ilmiy ifoda uslubi baholanadi.

Baholashning zamonaviy shakllari sifatida e-portfoliolar, o'zini baholash jadvallari, onlayn testlar, diagnostik kartalar va peer-review (o'zaro baholash) metodlari keng qo'llanmoqda. Ular orqali o'quvchilarning mustaqil o'qishga bo'lgan yondashuvi haqida chuqur ma'lumot olish mumkin.

XULOSALAR

Xulosa qilib aytganda, mustaqil ta'limni baholashning asosiy maqsadi – o'quvchining o'z ustida ishlashga bo'lgan tayyorgarligi, faolligi va o'zini rivojlantirish salohiyatini aniqlashdir. Bu baholash nafaqat yakuniy natijani, balki butun o'quv jarayonini kuzatishga xizmat qiladi.

Mustaqil ta'limni samarali tashkil etishda muayyan muammolar mavjud bo'lib, ular ta'lim jarayonining har xil bosqichlarida yuzaga chiqadi. Ushbu muammolarni aniqlash va ularga mos yechimlarni ishlab chiqish mustaqil o'qitish sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Eng avvalo, o'quvchilarning o'z-o'zini anglash va mustaqil ishlashga bo'lgan psixologik tayyorgarligi yetarli emasligi ko'plab holatlarda muammo sifatida ko'zga tashlanadi. Bunga sabab – an'anaviy ta'limda o'quvchining passiv roli bo'lishi va tashabbus ko'rsatish malakalarining rivojlanmaganligidir.

Yana bir muammo – resurslar va ta'lim vositalarining yetarli emasligi. Ko'plab ta'lim muassasalarida raqamli kutubxonalar, interaktiv darsliklar, platformalar va zamonaviy texnologik yechimlar mavjud emas. Bu holat mustaqil ta'limni to'laqonli tashkil etishda salbiy ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchilarning metodik tayyorgarligi ham mustaqil ta'lim muammolaridan biridir. Ba'zi o'qituvchilar bu jarayonni an'anaviy ma'ruzalar shaklida olib borishga intiladi va talabaning faol ishtirokini rag'batlantirmaydi. Bu esa talabaning mustaqil ta'limga bo'lgan ishonchini pasaytiradi.

Mustaqil ta'limda vaqtni boshqarish va rejalashtirish bo'yicha ko'nikmalarning yo'qligi ham o'quvchilar uchun jiddiy to'siq bo'ladi. Shuningdek, mustaqil ishlarni bajarishdagi plagiat muammosi, yuzaki yondashuv va faqat baho uchun o'rganish holatlari ham kuzatiladi.

Ushbu muammolarni hal etish uchun kompleks yondashuv zarur. Avvalo, o'quvchilarni motivatsiyalash, o'zini anglash va o'zini rivojlantirish bo'yicha treninglar, coaching-sessiyalar va reflektiv faoliyatlarni yo'lga qo'yish kerak. O'qituvchilar esa yangi pedagogik texnologiyalar bo'yicha doimiy malaka oshirishi lozim.

Shuningdek, ta'lim muassasalarida zamonaviy axborot-resurs bazasini yaratish, mustaqil ishlarni samarali baholash tizimini ishlab chiqish va rag'batlantirish mexanizmlarini yo'lga qo'yish ham muhimdir. Bu esa mustaqil ta'limni joriy etishda yuzaga keladigan ko'plab muammolarning oldini olishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Karimova Z. Ijodiylikni rivojlantirish texnologiyalari. – Toshkent: Ilm Ziyo, 2020. 47-b.
2. UNESCO (2021). ICT in Education: A Critical Review. 22-b.
3. Anderson, T. (2008). The Theory and Practice of Online Learning. 31-b.
4. Bates, T. (2015). Teaching in a Digital Age. 105-b.
5. Kukulska-Hulme, A. (2009). Will mobile learning change language learning? 66-p.
6. Johnson, D. W., & Johnson, R. T. (1999). Learning Together and Alone. 78-b.
7. Selwyn, N. (2012). Education and Technology: Key Issues and Debates. 21-b.